

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

DINAMIK MOTOR AFAZIYA VA UNI BARTARAF ETISH YO’LLARI .

Umida O‘tbasarova Mexmanovna

Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya PhD v.b dotsent

Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti

Defektologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Dinamik afaziya — markaziy nerv tizimining til sohasiga ta'sir qiluvchi nevrologik buzilish bo'lib, u nutqning shakllanishi va tushunilishida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ushbu maqolada dinamik afaziyaning klinik belgilariga, sabablariga va uning bartaraf etish yo'llariga ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, kasallikni davolashda reabilitatsiya metodlari va zamonaviy terapiya usullari ko'rib chiqiladi. Maqola til buzilishining ijtimoiy va psixologik oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar: *Dinamik afaziya, til buzilishi, nevrologiya, reabilitatsiya, nutq terapiyasi, nevroplastiklik, miyada jarohat, afaziya bartaraf etish.*

Аннотация: *Динамическая афазия — это неврологическое нарушение, затрагивающее речевую сферу центральной нервной системы, приводящее к трудностям в формировании и понимании речи. В статье рассматриваются клинические проявления, причины и современные методы устранения динамической афазии. Особое внимание уделяется реабилитационным подходам и новым терапевтическим методикам. Также анализируются социальные и психологические последствия данного расстройства.*

Ключевые слова: *Динамическая афазия, речевые нарушения, неврология, реабилитация, речевая терапия, нейропластичность, травма мозга, лечение афазии.*

Abstract: *Dynamic aphasia is a neurological disorder affecting the speech area of the central nervous system, leading to difficulties in speech formation and comprehension. This article analyzes the clinical features, causes, and current methods for managing dynamic aphasia. Special attention is given to rehabilitation approaches and modern therapeutic techniques. The social and psychological impacts of the disorder are also discussed.*

Keywords: *Dynamic aphasia, speech disorders, neurology, rehabilitation, speech therapy, neuroplasticity, brain injury, aphasia treatment.*


DINAMIK AFAZIYA

Dinamik afaziya bosh miyaning dominant bo‘lgan chap yarimsharlarning orqa peshana bo‘limlarining zararlanishi natijasida, ya'ni uchinchi funksional blok bo‘limlari


“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

faollashtirish bloki, nutqiy faoliyatni boshqarish va rejalashtirishga javob beruvchi sohalarning zararlanishidan kelib chiqadi.



Afaziyaning bu shaklida asosiy nutqiy nuqson bu-faol, mufassal bayon qilishning qiyinligi, gohida esa butunlay yo‘qolishi bilan tavsiflanadi. Dinamik afaziyada alohida tovushlar to‘g‘ri talaffuz qilinadi, so‘zlar va qisqa gaplar artikulyator qiyinchiliksiz takrorlanadi, biroq nutqning kommunikativ funksiyasi baribir buziladi.



Yaqqol namoyon bo‘lgan buzilishlarda nafaqat nutqiy, balki umumiy asponanlik, tashabbussizlik kuzatiladi, yaqqol ifodalangan exolaliya, gohida exopraksiya ham yuzaga keladi, ya’ni suhbatdoshining gapirgan nutqi va harakatlarini takrorlash hollari kuzatiladi.

Dinamik afaziyani o‘g‘irlik darajasiga ko‘ra turlari

- **Og‘ir darajasida-** Dinamik afaziyani bemorning nutqiy faolligi juda past va ko‘plab exolaliya bilan birga kuzatiladi.

- **O‘rta darajasida-** bemorning nutqi qisqa va ma’no jixatidan bir xil jumalardan tashkil topadi. Bemorda telegraf ko‘rinishidagi (masalan: qizcha ko‘cha bor) agrammatizmlar kuzatiladi. Nutqiy faollik juda past bo‘lib bemorda dialogik nutq ustunlik qiladi. Bemorda exolaliya bilan birga so‘zlashuv va kasbiy nutqda ishlatilgan jumalar takrorlanadi.

- **Yengil daraja-** bemorning mustaqil nutqi birmuncha shakllangan ammo mantiqiy jixatdan kambag‘al. Gapning umumiy ko‘rinishi ohangsiz va gapning tuzilishida ko‘plab xatolar kuzatiladi (masalan: Sabina choynak qo‘ydi stol). Exolaliya faqat bemor charchaganida namoyon bo‘ladi.

Bemorlarda kuzatiladigan dinamik afaziyaning uch darjasida ham avtomatlashgan nutqni qiyinchiliksiz tiklanadi.

Ekspressiv nutq buzilishi

Muloqot qilish funksiyasining buzilish darajasiga ko‘ra, dinamik afaziyaning bir nechta ko‘rinishlari mavjud: ekspressiv nutqning butunlay yo‘qolishi yoki qisman nutqiy muloqot buzilishlari bilan kuzatiladi.

Dinamik afaziya negizida bayon qilishning ichki dasturlashining buzilishi yotadi. Bu alohida iboralarni tuzishda, uni rejalashtirishdagi qiyinchiliklarda o‘z aksini topadi. Bemorlar nutqi doimiy stimulyatsiyasiga muhtoj bo‘ladi. Ulardagi nutqning sintaktik tuzilishning soddaligi, nutqiy andozalarning mavjudligi va bunda agrammatizmlarning kuzatilmaligi bilan farq qiladi.

Qaytalanuvchi nutq

O‘g‘ir darajadagi bemorlarda qaytalanuvchi nutq exolaliya bilan birga kuzatiladi. Bir so‘zni takrorlash va so‘zlarni qo‘shib tashlash va keying so‘zga o‘ta olmasdan so‘zni bir necha marotaba takrorlash bilan namoyon bo‘ladi. O‘rta darajada bemor ko‘plab qaytalanuvchi nutqdan foydalanadi, gap qisman ma’no jixatdan kambag‘al hamda nutqning prosodik tomoni ifodaliligi va ohangi yo‘qolgan. Yengil darajadagi bemorlarda logoped ketidan takrorlanuvchi nutq saqlangan holda charchash vaqtida exolaliyalar bilan kuzatiladi.

Dialogik nutq

Nutq nuqsonining qo‘pol buzilishlari bo‘lgan bemorlarning dialogik nutqi deyarli yo‘q. Ular faqat “ha” yoki “yo‘q” so‘zlari bilan javob berishga qodir, shuningdek javob sifatida xayajonlanganda uf, zo‘r, ox kabi bo‘g‘inlardan foydalanadilar. Vaziyatga nisbatan dialogli nutq birmuncha oson namoyon bo‘ladi. Afaziyaning yengilroq darajalarida dialogik nutq saqlangan, ammo ko‘plab xatolar bilan namoyon bo‘ladi.

Nomlash

Dinamik afaziyaning qo‘pol buzilishlarida bemorlar kundalik predmetlarni rasmlar ichidan topishlari va nomlashlari mumkin. Yengil darajada nutq qo‘pol buzilishlarsiz, ammo bemor lug‘atida fe‘llar sezilarli darajada ustundir. Yengil dinamik afaziyada predmetlarni nomlash saqlanib qoladi.

Syujetli rasm asosida hikoya tuzish

Dinamik afaziyaning qo‘pol buzilishlarida bemorlar syujetli rasm asosida ibora tuza olmaydilar. O‘rta darajada esa syujet asosida oddiy iborani tuzishlari mumkin, ammo nutqni dasturlashda ko‘pincha iboraning chuqur tuzilishi darajasida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Yengil dinamik afaziyada bemorlar qiyinchiliksiz hikoya tuza oladilar.

Mufassal, to‘la spontan bayon qilishning buzilishi, dinamik afaziyada markaziy qism hisoblanadi. Syujetli rasm bo‘yicha hikoya qilishda, o‘zaro bog‘lanmagan alohida fragmentlar talaffuz qilinadi, asosiy ma‘no qismlari ajratilmaydi: “Mana. . . cholda tovuq bor. . . va tilla tuxumlar. . . va chol uni qidirib qo‘ydi. . . mana!” (A.R.Luriya, 1975).

Nutqni tushunishning buzilishi

Motor oldi tizimning zararlanishida nafaqat nutqdagi asosiy fikrni ochib berish jarayoni, balki matn mazmunini tushunish uchun muhim bo‘lgan nutqiy tizimni qisqartirish ham buziladi. Dinamik afaziyaning yengil darajasida, elementar vaziyatli nutqni tushunish, ayniqsa, u birmuncha sekinlashgan tempda, ko‘rsatmalar orasida pauzalari bilan **taqdim etilsa** saqlanib qoladi.

Biroq, bemorga berilayotgan vazifalar tezlashganda (predmetli rasmlar, yuz qismlarini ko‘rsatishda), perservatsiyalar, predmetni tez topib berishdagi qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin, so‘z ma‘nosining psevdobuzilganligi yuzaga keladi.

Murakkab bayon qilishni tushunishdagi qiyinchiliklar, bemorlarning yetarli faol emasligi, alohida elementlar ahamiyatiga to‘la diqqat qaratmasligi, tilning grammatik vositalarini tushunishning buzilishi bilan bog‘liq. Qo‘pol buzilishi bo‘lgan bemorlarda diqqatni yo‘qotish, so‘zlarni takrorlashlari tufayli begona nutqni to‘liq tushunmaydilar. “bemorni xulqi noaniq”: bemor ko‘rish doirasidagi predmetlar bilan chalg‘iydi. Ba’zida grammatik jihatdan murakkab qurilgan nutqni tushunishlari qiyin. Yengilroq darajada ham grammatik jixatdan bezatilgan nutqni tushunishlari qiyin bo‘ladi.

O‘qish va yozuvning buzilishi

Alohida harflarni oddiy so‘zlarni o‘qish hatto qo‘pol dinamik afaziya bilan og‘rigan bemorlar uchun ham xos bo‘lgan belgidir. Yengil holatlarda o‘qish saqlanadi, ammo matnning alohida qismlarida “to‘xtab qolish”, so‘zlarni o‘tkazib yuborish va butun iboralarni tushurib qoldirish mavjud bo‘ladi.

Og‘ir buzilishlarda ham yozish va ko‘chirish malakasi saqlangan ammo diktant yozishda qiyinchiliklar mavjud. Og‘zaki va artikulyatsion praksis hatto qo‘pol buzilishi bo‘lgan bemorlarda ham og‘zaki va artikulyatsion praksis deyarli buzilishlarsiz kuzatiladi.

Korreksion ish:

- Syujetli rasm asosida qisqa gap tuzish.

Masalan: Bola koptok o‘ynayapti.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

● Syujetli rasm asosida bemor javob berishi uchun yo‘naltiruvchi savollar berish.

Masalan:

Daraxtda nima ko‘rayapsiz? (olma)

Koptok yorildi (nima yorildi?)

● Bemorda fe‘llarni turlicha tuslanishini yo‘naltiruvchi savollar orqali gapda qo‘llashga o‘rgatish (o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon)

Masalan:

Bola uxladi (o‘tgan)

Bola uxlayapti (hozirgi)

Bola uxlamochi (kelasi)

Bemorga tuganlanmagan fe‘l qatnashgan jummalarni berish orqali jumlaning tugallashini so‘rash.

1. Logoped bemorga syujetli rasmlar seriyasiga qarashni va kichik matn tuzishini so‘raydi.

2. Matnning mavzusini syujetli rasmning tagiga qo‘yishni so‘raydi.

3. Bemorga tanish bo‘lgan so‘z va gaplarni o‘qish.

4. Adabiy qisqa hikoyalarni o‘qish va asosiy mazmunini hikoya qilishga o‘rgatish.

5. Bemor bilan dialogik suhbat o‘tqizish.

Dialogik savollar:

● Sizga bugun qanday muolajalar qilishdi?

● Siz nechi kundan beri shifoxonada/uyda yotibsiz?

● Kecha siz nimalar qildingiz?

● Sizni ko‘rgani bugun kim keldi?

6. Syujetli rasmlar asosida savollarga bemor “ha” yoki “yo‘q” deb javob berishi kerak.

7. Yo‘naltirgan savollarni kamaytirish bemorga kamroq yordam berish kerak.

8. Gapdagi mantiqiy grammatik bog‘lashlanishlarni tushunish.

Masalan:

Maftuna yolg‘on gapirdi (Kim yolg‘on gapirdi?)

Diyora qattiq yig‘ladi. (Kim yig‘ladi?)

9. Berilgan maqollarning ma‘nosini tushunishga o‘rgatish. (Masalan: Sabr tagi sariq oltin. Shu maqolning ma‘nosini so‘rash).

10. Mantiqa to‘g‘ri kelmagan gaplarni tushunishga o‘rgatish. (Masalan: Sichqon mushukni yeb qo‘ydi. Kitob Ominani o‘qidi).

11. Bemor o‘zining hozirgi holatiga ko‘ra hikoya tuzib berishini so‘rash.

Logopedik ish, 3 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich - bemorda o‘qish va yozish nutqni qaytarish ko‘nikmalari shakllanganligi sababli bemorning oldiga syujetli rasm hamda shu rasimda ifodalangan gapning mazmuni bosma harflar bilan yozilgan kartochkasi bemorning oldiga qoyiladi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Bemor logoped bilan birgalikda avval syujetli rasmda ifodalangan rasmlarni takrorlaydi.(bosma harfda yozilishi shart)

Masalan: (Qizcha olmalarni daraxtdan uzayapti).

Keyin 2 ta syujetli rasm ko‘rsatadiladi bemor 2 ta so‘zni birlashtirib aytadi. So‘ng yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

(Masalan: Qizcha nimani uzayapti? Olmani. Kim uzayapti? Qizcha).

QIZCHA DARAXT UZAYAPTI OLMA

Ikkinchi bosqich - Bemorga dialogik nutqni tiklash uchun savollar beriladi.

Masalan: bugun nima ovqat yedingiz? Nima bilan yedingiz? Bemorga tayyor jumlar o‘qish, yozish va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun beriladi. Bemor jumlarini fe‘llar bilan tugatishi shart. Masalan: Dilshoda ro‘molini o‘radi. (o‘rayapti, o‘ramoqchi)



Uchinchi bosqich - Bemorga adabiy matnlarni berish orqali nutqning intonatsion tomonni shakllantiriladi. Bemor o‘zi o‘qigan hikoyani ifodali qilib aytib berishi kerak bo‘ladi. Logoped mavzu beradi va bemor shu mavzu asosida matn tuzishi so‘raladi.

Masalan:

Tulki-

Qop-

Antonim

Katta - kichik

Qalin - yupqa

Issiq - sovuq

Achchiq - shirin

Baland – past

Tor- keng

Oq - qora

Yassi - g‘adir-budur

Qattiq – yumshoq

Yaxshi – yomon

XULOSA

Dinamik afaziya – murakkab nevrologik buzilish bo‘lib, uni davolash ko‘p yo‘nalishli va tizimli yondashuvni talab etadi. Nutq terapevtik mashqlar, kognitiv reabilitatsiya va zamonaviy texnologiyalar yordamida bemorning til qobiliyatlari tiklanishi mumkin. Shuningdek, bemorning psixologik holatini qo‘llab-quvvatlash, uning ijtimoiy hayotga qaytishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, dinamik afaziyaning oldini olish uchun miya salomatligini mustahkamlash va xavf omillarini kamaytirish zarur.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Артемов, В.А.Речевая интонация Экспериментальная фонетика / В.А. Артемов // Вып.3. - Минск, 2008. - С.196-213.
- 2.Амосова, Н.Н, Каплина Н.И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний головного мозга / Н.Н. Амосова, Н.И. Каплина. - «АСТРЕЛЬ», Москва, 2009
- 3.Ахутина, Т.В. Поражение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса / Т.В. Ахутина. - М, МГУ, 2009.
- 4.Бейн, Э.С.,Бурлакова, М.К., Визель, Т.Г.Восстановление речи у больных с афазией / Э.С. Бейн, М.К. Бурлакова, Т.Г. Визель. - М. Медицина. 2002.
- 5.Блыскина, И.В.Комплексный подход к коррекции речевой патологии у детей. Логопедический массаж. Методическое пособие для педагогов дошкольных образовательных учреждений / И.В. Блыскина. - Санкт Петербург, «Детство-Пресс», 2011.
- 6.Балунов, О.А., Кушниренко, Я.Н. Динамика функционального состояния больных, перенесших инсульт // Журнал неврологии и психиатрии, № 6, 2000.
- 7.Виленский, Б.С. Инсульт: профилактика, диагностика и лечение / Б.С. Виленский. - СПб., 1999.
8. Выготский, Л.С.Собрание сочинений: В 6-ти томах. Т.6. Научное наследство/Под ред. М. Г. Ярошевского. – М.: Педагогика, 1984. 61
- 9 .Визель, Т.Г.Основы нейропсихологии / Т.Г. Визель. – М., 2006.
- 10.Визель.Т.Г.Как вернуть речь / Т.Г. Визель. - ТЦ Сфера, В.Секачев, 2005.
- 11.Волкова,Л.С.Логопедия / Л.С. Волкова. – Москва, 2016.
- 12.Изучение и коррекция речевых расстройств //Межвузовские статьи, научные труды. - [Электронный ресурс: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25799424>].